



Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari¹

2025- yil yanvar-aprel


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-aprel oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **6 600,5** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,9** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **1 086,7** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: 2024- yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar hajmi 5 513,8 mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa 107,8 % ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2024- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan (**2 673,0** ming so'm) 2025- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **634,2** ming so'mga yoki **6,8** % ga o'sib, **4 283,5** ming so'mni tashkil etgan.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 047,6** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **74,8** % ini, jumladan, **46,2** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

¹2024- yil yanvar-aprel oylari hajmi va 2025- yil yanvar-aprel oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-aprel

	Hajmi, mlrdso'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati ²	6 600,5	100,0	108,9
Jizzax shahri	2 125,7	32,2	106,6
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	78,7	1,2	117,5
Baxmal	303,9	4,6	114,0
G'allaorol	330,5	5,0	104,5
Sharof Rashidov	565,2	8,6	114,0
Do'stlik	118,7	1,8	113,7
Zomin	325,2	4,9	109,5
Zarbdor	131,7	2,0	106,7
Mirzacho'l	88,7	1,3	101,4
Zafarobod	67,5	1,0	107,1
Paxtakor	147,6	2,2	103,1
Forish	189,1	2,9	112,2
Yangiobod	37,4	0,6	156,0

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

Jizzax shahrining yuqori ulushi (**32,2** %) uning poytaxt maqomi bilan izohlanadi, u Jizzaxning eng yirik shahridir. Poytaxtda davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Jizzax rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

²Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida yashash va ovqatlanish xizmatlari **7,8 %** ga (o'sishiga hissasi **2,2** band), savdo xizmatlari **13,9 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissasi **2,1** bandni tashkil etdi), transport xizmatlari **10,6 %** ga (o'sishiga hissasi **1,3** band), moliyaviy xizmatlar **6,4 %** ga (o'sishiga hissasi **1,3** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **17,4 %** ga (o'sishiga qo'shgan hissasi **0,6** band) va shaxsiy xizmatlar **8,2 %** ga (o'sishiga hissasi **0,2** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-aprel)

	Hajmi, mlrdso'm		O'sish sur'ati, %
	2024-y.	2025-y.	
Xizmatlar – jami	5 513,7	6 600,5	108,9
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	204,2	260,1	115,0
moliyaviy xizmatlar	882,6	978,7	107,9
transport xizmatlari	626,6	787,0	111,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	602,6	754,2	110,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 476,3	1 757,7	108,4
savdo xizmatlari	1 272,3	1 468,9	109,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	83,2	102,4	111,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	175,2	200,8	95,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	103,1	132,4	109,2
ijara xizmatlari	58,4	80,7	108,6
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	121,0	140,8	107,8
shaxsiy xizmatlar	120,6	157,8	108,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	56,6	75,4	104,8
boshqa xizmatlar	333,8	457,7	111,3

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:


[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025- yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,6 %**, savdo xizmatlari **22,3 %**, moliyaviy xizmatlar **14,8 %**, transport xizmatlari **11,9 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,9 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,0 %** ulushini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2024-yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,8 foiz**, savdo xizmatlari **23,1 foiz**, moliyaviy xizmatlar **16,0 foiz**, transport xizmatlari **11,4 foiz**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,7 foiz**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,2 foiz** ulushni tashkil etgan.




Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi
2025-yil yanvar-aprel, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **71,4** foizni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan esa **5,1** foizga kamaygan.

2025- yilning yanvar-aprel oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **moliya xizmatlarida** o'sish kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan hajmi **1,2** mlrd so'mga yoki **2,8** foizga kamayishi kuzatilgan.

Sug'urta xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi





2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida **avtotransporti xizmatlari (110,7 %)**, **omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari (138,7 %) xizmatlarida** yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. Havo transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, parvozlarning sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Jizzaxda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **94,8 %** ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **108,1%** ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot(ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu– xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyektiga bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'lagigicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan



xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlaribo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

Chiqarish uchun javobgar:
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Manzil: 130100, Jizzax shahri,
To'qimachilar ko'chasi, 7
Pochta: info@jizzaxstat.uz
Tel.: 72-221-51-27

